

XITOIY TILI “BAXT” KONSEPTINI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA “喜” KOMPONENTINING PERIFERIK MA’NOLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-171-176>

Valieva Noiba Abbasxonovna

Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti katta o‘qituvchisi, (PhD)

naying1564@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqola doirasida xitoy xalqining zamonlar osha an’anasi, qadriyatlari va urf-odatlarida o‘z aksini topgan “baxt” konseptining konnotativ ma’nolaridan biri farzand haqida yoritilgan. Quyida keltirilgan frazeologik birliklardan aqlli, tarbiyali, har tomonlama yetuk farzand ham baxtning bir bo‘lagi ekanini ko‘rish mumkin. Sharq davlatlarida yangi qurilgan oilaga “serfarzand bo‘ling” yoki “serdavlat bo‘ling” deb niyat bildirib, yoshlarga baxt tilashadi. Aynan shu kabi tilaklar xitoyliklar orasida ham qadimda keng tarqalgan bo‘lib, hozirgi kunda frazeologik birliklarda saqlanib qolgan.

Аннотация. В данной статье рассмотрим понятия ребенок, одной из периферии концепта «счастье», которая находит свое отражение в древних традициях, ценностях и обычаях китайского народа. Из приведенных ниже в статье фразеологизмов видно, что умный, воспитанный, всесторонне развитый ребенок также является частью счастья. В странах Востока молодым людям желают счастья, выражая благословения новоиспеченной семье «родить много детей (сохранить род)» или «много денег (огромное богатство)». Такие пожелания о многодетности были распространены у китайцев в древности и сохранились во фразеологизмах и сегодня.

Annotation. In this article, we will consider the concept of a child, one of the periphery of the concept of "happiness", which is reflected in the ancient traditions, values and customs of the Chinese people. From the phraseological units given below in the article, it can be seen that a smart, well-mannered, comprehensively developed child is also part of happiness. In the countries of the East, young people are wished happiness, expressing blessings to the newly-made family “to give birth to many children (preserve the family)” or “a lot of money (great wealth)”. Such wishes for having many children were common among the Chinese previously and are preserved in phraseological units today.

Kalit so‘zlar. Konsept, quvonch, avlod, konnotativ ma’no, tantana.

Ключевые слова. Концепт, радость, потомки, коннотативное значение, праздник.

Keywords. Concept, joy, descendants, connotative meaning, holiday.

Shunday umumiy tushunchalar borki, umum qadriyatlarni o'z ichiga oladi aynan "baxt" konsepti har bir millatning dunyoqarashi va qadriyatlaridan kelib chiqadi. "Baxt" konseptida etnosning ham dunyoviy va moddiy o'zaro uyg'unlikka erishish haqidagi, ham umuman inson hayotining mazmuni haqidagi mahalliy tasavvurlar aks ettiriladi. Bu ayniqsa zamonaviy Xitoyning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va falsafiy adabiyotida aks ettirilgan dunyoqarashlarida yorqin namoyon bo'ladi. Bu dunyoqarashlarda ko'p millionli kapital ketidan to'xtatib bo'lmaydigan poyga ishtirokchilari bo'lgan zamonaviy Xitoy aholisi, o'zini ma'naviy jihatdan takomillashtirish bilan moddiy va ma'naviy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikka erishishni moslashtirish uchun intilishlari ifodalangan. Agar "baxt" tushunchasi o'zbek tilida katta hajmdagi matniy sinonimlarida ifodalangan va bir-biridan katta semantik farqqa ega bo'lgan, o'zbeklar uchun qandaydir mavhumlik, noaniqlikni namoyon etsa, xitoyliklar tasavvurida "baxt" tushunchasi o'zaro bog'liq va bir-biri bilan chambar-chas aloqador tushunchalar bo'lib, aniq tarzda tartibga solingan tuzilmaga ega. Mazkur tushunchalar ushbu xalqning umumiy falsafiy anglashadagi an'anaviy tasavvurida birlashadi va aniq konseptni hosil qiladi.

Konseptlarni o'rganish zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Har bir inson baxt haqida o'ylar ekan beixtiyor quvnoq inson, quvonchdan porlab turgan nigoh hayolga keladi. Quvonch tuyg'usi ham xitoy tili miqyosida "baxt" konseptining yaqin periferiyasiga kiradi va uning ajralmas qismidir.

Quvonch fundamental his-tuyg'ular ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, universallik, umum anglovchi, verballashuv kabi xususiyatlarga ega. Quvonch insonning universal hissiy holatlaridan biri bo'lib, ichki hissiy qoniqish, zavq, baxt kabi asosiy ijobiy his-tuyg'ularidan biri sifatida tavsiflanadi [9, 630b.]. "Baxt" konseptini ifodalovchi frazeologik birliklar usha xalqning dunyoga qayday pozitiv darajada qarashini ifodalaydi. Baxt leksemasi alohida konsept sifatida o'ziga xos inson tuyg'ularini anglatga-da, muhabbat, shodlik, quvonch, baxtiyorlik, do'stlik tuyg'ulari bilan ham bog'lanadi. Ma'lumki, baxt konsepti mazmunida inson uchun qadr-qiymatga ega bo'lgan tuyg'u yotadi. Bunday ta'rif esa til o'zining kumulyativ vazifasini bajarishiga ilmiy isbot sifatida keltirish mumkin. Emotsional konsept bo'lmish "quvonch" mental mavhum birlik bo'lib, u odamlarning ko'p asrlik kumulyativ jarayonda hissiy kechinmalar haqidagi universal va madaniy o'ziga xos g'oyalar shaklini aks ettiradi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan esa inson o'z

tuyg'ularini til birliklari orqali ifodalashi va ularning og'zaki va yozma nutqda aks ettirishi tilshunos olimlar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Demak, inson o'z tuyg'ularini ifoda etar ekan, bu uning voqelik bilan o'zaro ta'sirini aks ettirishning o'ziga xos usuli hisoblanadi. Masalan, inson quvonchni noverbal ko'rinishda ham aks ettirishi mumkin, masalan: tabassumi bilan, ko'zlaridagi quvonchli nigoh yoki bo'shashgan qoshlari bilan, u bu bilan muayyan voqeaga individual munosabatini bildiradi. Tilda esa inson ma'lum bir so'zlar, idioma yoki frazeologik birliklar orqali ifoda etadi.

Mazkur “喜 xi” iyeroglifining lug'atlarda keltirilgan tarjimalarini tahlil qilganimizda, nafaqat quvonch, balki marosim ma'nosini ham uchratdik, biroq marosimlar ham quvonchli voqea-hodisani ifodalashini hisobga olib, umumiy “quvonch” ma'nosini qo'lladik. Tahlillarda keltirilgan frazeologik birliklar asosan to'y marosimi, fazrand dunyoga kelgandagi marosimlarda tabrik so'zi sifatida qo'llanishini kuzatdik. Demak, “baxt” konsepti tarkibiga kiruvchi “喜 quvonch” freymi ko'p holatda oila rishtalari va nikoh kabi konnotativ ma'nolarni ifodalashi mumkin ekan. Oila esa o'z o'rnida farzand, uning tarbiyasi bilan bog'liqdir. Xitoyda “quvonchning to'rtta (喜 xǐ)si” nomi bilan she'r ham mavjud bo'lib, unda uzoq davrning to'rtta eng quvonchli hodisasi, ya'ni uzoq quruqchilikdan keyingi yomg'ir, begona mamlakatdagi kutilmagan do'stlar, nikoh kunidagi shamlar, imtihon yakuni sifatidagi podshohning oltin hurmat taxtasiga yozilgan ismlar aytib o'tiladi [3, 33b]. Demak, bir quyidagi tahlilga tortgan frazeologik birliklar “baxt” konseptining yaqin periferiyasidagi “quvonch” (quvonchli marosim, tantana) iyeroglifi periferiyasida yotuvchi bilvosita “farzand” bilan bog'liq ma'nolariga to'xtalib o'tamiz:

聪明伶俐 *cōng míng líng lì* [1, 15b.] aqlli va odobli (asosan bolalarga nisbatan)

聪:听觉灵敏;明:视觉敏锐。伶俐:灵活,乖巧,干脆,爽利。聪明伶俐多用于对聪慧儿童的称赞。“葱”与“聪”谐音。藕心空明透亮,示“明”。“菱”谐音“伶”,“荔”谐音“俐”,合为“聪明伶俐。”寓意多生聪明伶俐的贵子。

Cōng: Tīngjué língmǐn; míng: Shìjué mǐnrùi. Línglì: Líng huó, guāiqiǎo, gāncuì, shuǎnglì. Cōngmíng línglì duōyòng yú duì cōnghuì értóng de chēngzàn. “Cōng” yǔ “cōng” xiéyīn. Ōu xīn kōng míng tòuliàng, shì “míng”. “Líng” xiéyīn “líng”, “lì” xiéyīn “lì”, hé wèi “cōngmíng línglì.” Yùyì duō shēng cōngmíng línglì de guìzǐ.

Cong: o'tkir eshitish xususiyati; ming: o'tkir ko'rish xususiyati. lingli: moslashuvchan, yaxshi xulqli, tiniq, tetik. Asosan aqlli bolalar uchun maqtov sifatida ishlatiladi. “葱” va “聪” omofondir. Lotus ildizi shaffof bo'lib, “明” ni

ifodalaydi. “菱” va “伶”, “荔” va “俐” iyerogliflari ham omofon hisoblanib, “aqli va dono” degan ma’nolarni anglatadi.

Mazkur frazeologik birlik bolalarni maqtashda yoki yosh oilaga tilak bildirayotganda aqli farzand tilab, ko‘p ishlatiladi. Xitoy badiiy asarlarida ham ko‘p uchraydi. Yuqoridagi misolda ta’rifida keltirilgan iyeroglif tarjimasida gul bo‘lsa ham, omofon bo‘lgani sabab aqli, odobli ma’nosini ifodalagan. Umuman olganda xitoy tilidagi frazeologik birliklarda omofonlik hodisasi ko‘p uchrab,

麟趾呈祥 *lín zhǐ chéng xiáng* qobiliyatli va aqli farzandlar (farzand tug‘ilganda tabrik sifatida ishlatilgan bo‘lib, hozirda kam holatlarda uchratish mumkin)

《诗经》：“麟之趾，振振公子，于嗟麟兮。”是说周文王的子孙知礼 行善，后多用于赞颂子孙之贤慧。麟 趾呈祥在旧时多作为婚典喜联的横 披，以祝生育仁厚之后代。在祝贺生 子的联中也有：“石麟果是真麟趾，雏凤清于老凤声。”

“Shījīng”: “Lín zhǐ zhǐ, zhèn zhèn gōngzǐ, yú jiē lín xī.” Shì shuō zhōuwén wáng de zǐsūn zhǐlǐ xíngshàn, hòu duōyòng yú zànsòng zǐsūn zhǐ xiánhuì. Lín zhǐ chéng xiáng zài jiùshí duō zuòwéi hūndiǎn xǐ lián de héng pī, yǐ zhù shēngyù rénhòu zhīhòu dài. Zài zhùhè shēng zǐ de lián zhōng yěyǒu: “Shí lín guǒ shì zhēn lín zhǐ, chú fèng qīng yú lǎo fèng shēng.”

Qadimgi “Qo‘shiqlar kitobi”da yakkashox (bir shoxli ot) barmoqlari haqida aytib o‘tilgan bo‘lib, Chjou qiroli Venning bolalari marosimlarni bajarganida, xayrli ishlar qilganida, ularni maqtash, qo‘llab-quvvatlashni ifodalagan. Keyinchalik mazkur iyeroglif bolalarning donoligi va qobiliyatini maqtash ma’nosida qo‘llanilgan. Mazkur ibora ko‘pincha to‘y tan‘tanalarida yangi turmush qurganlarning zurriyotlariga yaxshilik tilash uchun gorizontol osilgan o‘ram qog‘ozlarga yozilgan va tabrik sifatida ishlatilgan.

Hozirda ushbu frazeologik birlik asosan chekka qishloqlarda ishlatilib, biroz eskirgan frazeologik birlik hisoblansada, biroq qadimdan ota-onasiga munosib farzand baxt ekanini ifodalagan.

瓜瓞绵绵 *guā dié mián mián* serfarzand bo‘lishni, avlodlar ko‘payishini ifodalaydi.

大瓜、小瓜累累，结在绵长的藤 蔓之上，表示世代绵长，子孙万代。《诗·大雅·绵》：“绵绵瓜瓞，民之初 生，自土沮漆。”《疏》：“大者曰瓜，小者曰瓞。”讲的是周朝的先祖像瓜 瓞一样代代相传，到周文王才奠定了 王业基础。

Dà guā, xiǎo guā lěilěi, jié zài miáncháng de téng màn zhī shàng, biǎoshì shìdài miáncháng, zǐsūn wàndài. “Shī·dà yǎ·mián”: “Miánmián guā dié, mín zhī chūshēng, zì tǔ jǔ qī.” “Shū”: “Dà zhě yuē guā, xiǎo zhě yuē dié.” Jiǎng de shì zhōu

cháo de xiānzǔ xiàng guā dié yīyàng dài dài xiāngchuán, dào zhōuwén wáng cái diàndingle wáng yè jī chǔ.

Uzun polizlarda katta-kichik o‘sgan poliz ekini (qovun) nasl-nasabni bardavom bo‘lishining belgisidir. Mazkur frazeologik birlik qadimgi adabiyotdan kelib chiqqan bo‘lib, Chjou sulolasi ajdodlarining uzoq va keyingi avlodlari haqida ma‘lumot beradi, chunki uning poydevori Chjou qiroli Ven hukmronligi davrida nihoyat shakllangan.

Barcha sharq xalqlari kabi xitoyliklar ham bolajon hisoblanadi, mazkur frazeologik birlik ham bunga ishora qiladi. Demak, avlodlarni ko‘payishi baxtning bir ko‘rinishi ekan.

Xulosa sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- 喜 xǐ quvonch, xursandchilik, bayram, marosim, sevgi, yaxshilik, homiladorlik, xursand bo‘lmoq, quvonmoq, yoqtirish(hobbiy, shug‘unlanmoq) va ravish asosli: quvnoq, xush, intiq kabilar bilan bir qatorda farzand yoki serfarzandlik periferik ma‘noni ham ifodalaydi.

- sharq davlatlarida yangi qurilgan oilaga “serfarzand bo‘ling” yoki “serdavlat bo‘ling” deb niyat bildirib, yoshlarga baxt tilashadi. Aynan shu kabi tilaklar xitoyliklar orasida ham qadimda keng tarqalgan bo‘lib, hozirgi kunda jamiyatdagi qarashlar o‘zgarishi natijasida o‘z aktualligini biroz yoqotgan bo‘lsada, biroq frazeologik birliklarda saqlanib qolgan.

- umuman olganda mazkur iyeroglif va u bilan bog‘liq frazeologik birliklar farzand tug‘ilganidan boshlab har bir marosimda mavjud bo‘lib, to motam marosimiga qadar ya‘ni insonni butun umri davomida sodir bo‘luvchi yaxshi tantanalarni ifodalaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. 黄全信, 中华五福吉祥图典, 华语教学出版社, – 北京 2003., – С.245.
2. 近年来关于幸福感研究的文献综述 李立 中南民族大学民族学与社会学学院, 武汉-2013.
3. Ан С.А., Ворсина О. А., Песчанская Е. В. Многозначность понятия «счастье» в китайской философии культуры. Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств. 2012/4 (32)
4. Nasirova, S. A. (2020). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. – Opcion: Revista de Ciencias Humanas y Sociales, 260-273.
5. Татаркевич В. О счастье и совершенстве человека. М., 1981, с-53.

6. Торопов А. А. Чэньюй и их свойства // Спорные вопросы китайского языка. – М., 1965. – С. 111
7. Китайско-русский словарь /Сост. Фу Чонг. – Шанхай, 2004. – 1249 с.
8. Ошанин И. М. (ред.) Большой китайско-русский словарь.Т. 1-4. М.: Наука, 1983-1984. – С.1062.
9. Ожегов С. И. Словарь русского языка. Изд-е 4-е, испр. и доп. М.: Государственное издание иностранных и национальных словарей, 1961. 900 с.
10. http://chengyu.t086.com/c_b4f4
11. Каримов, А. А. (2021). Соотношение понятийного и ассоциативного начало в иероглифическом письме (на примере иероглифа 日 «солнце»). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 76-81.